



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

12 (74) 2024

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЪЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Д.А. ХАСАНОВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ NEW DAY IN MEDICINE

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

12 (74)

2024

ноябрь

www.bsmi.uz

<https://newdaymedicine.com> E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

Received: 20.11.2024, Accepted: 03.12.2024, Published: 10.12.2024

UDK 618.32-024.61: 612.438- 053.13/31

ANTENATAL DAVRNING 28-33 XAFTALIGIDA O'LIK TUG'ILGAN CHAQALOQLAR TIMUSINING MORFOLOGIK O'ZGARISHLARI

Yuldashev Z.N. Email: ziyoyidding@gmail.com

Maxkamov N.J. Email: nosirzonmahkamov5@gmail.com

Andijon davlat tibbiyot instituti O'zbekiston, Andijon, Otabekov 1 Tel: (0-374) 223-94-60.

E.mail: info@adti

✓ Rezyume

Antenetal davrda chaqaloqlar o'lim ko'rsatkichi gestatsion davrning muddatiga bog'liq bo'lib, eng ko'p 22-27, 28-32, 33-38 xaftalik davrida xali to'liq shakllanmagan timus va buyrak usti bezi bilan o'zaro integratsiyalangan funksional bog'liqligini buzilishi bilan davom etadi. Antenatal davrda xomila ichi infeksiyasidan nobud bo'lganlar barcha chaqaloqlarni 78,2 % ni tashkil etib, tadqiqotimizni asosini tashkil etadi. Ayrisimon bezda morfologik rivojlanishdan orqada qolishlar: timusning po'stloq qavati kengligi jixatidan, mag'iz qavatni juda kichik soxani egallaganligi, yetilgan limfotsitlarni deyarlik bo'lmasligi bilan xarakterlanadi. Bu o'zgarishlarning asosiy morfologik susbtrati sifatida, timus po'stloq qavati retikuloepitelial xujayralarining xajman kichikligi, desmasoma-larining kalta va yo'g'on ko'rinishda bo'lishi, desmasomalar oralig'ini o'zaro tutashtiruvchi siyrak tolali tuzilmalarning aynan, po'stloq qavat perivaskulyar soxalarda ko'p bo'lishi, gematogistiogen to'siqni xam funksional majrux xolatga kelishiga olib kelinganligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: timus, morfologiya, involyusiya, immunodefitsit, nekroz, apoptoz.

МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ ТИМУСА МЕРТВОРОЖДЕННЫХ ДЕТЕЙ В 28-33 НЕДЕЛИ АНТЕНАТАЛЬНОГО ПЕРИОДА

Юлдашев З.Н. Email: ziyoyidding@gmail.com

Махкамов Н.Ж. Email: nosirzonmahkamov5@gmail.com

Андижанский государственный медицинский институт Узбекистан, Андижан, Отабекова 1 Тел:

(0-374) 223-94-60. Email:info@adti

✓ Резюме

Показатели младенческой смертности в антенатальном периоде связаны со сроком гестационного периода и наиболее высоки в сроки 22-27, 28-32, 33-38 недель при еще не полностью сформировавшихся тимусе и надпочечниках с нарушением интеграционно - комплексной функциональной зависимости. Основу нашего исследования составляют 78,2% всех детей, умерших от внутриутробной инфекции в антенатальном периоде.

Задержка морфологического развития щитовидной железы: характеризуется тем, что кора тимуса занимает очень небольшую площадь мозгового вещества, а зрелые лимфоциты почти отсутствуют. Основным морфологическим субстратом этих изменений являются ретикулоэпителиальные клетки коркового слоя тимуса небольшие, демасомы короткие и толстые, а соединяющие демасомы редкие волокнистые структуры. В периваскулярных зонах много толстого слоя, который вызывает функциональное нарушение гематогистогенного барьера.

Ключевые слова: тимус, морфология, инволюция, иммунодефицит, некроз, апоптоз.

MORPHOLOGICAL CHANGES OF THE THYMUSIS OF STILLBORN INFANTS AT 28-33 WEEKS OF THE ANTENATAL PERIOD

Yuldashev Z.N. Email: ziyayodding@gmail.com

Maxkamov N.J. Email: nosirzonmahkamov5@gmail.com

Andijan State Medical Institute Uzbekistan, Andijan, Otabekov 1 Tel: (0-374) 223-94-60.

E-mail: info@adti

✓ **Resume**

The infant mortality rate in the antenatal period depends on the duration of the gestational period, and is the highest in the period of 22-27, 28-32, 33-38 weeks with the thymus and adrenal gland not yet fully formed. continues with the violation of integrated functional dependence. 78.2% of all babies who died from intrauterine infection in the antenatal period are the basis of our research. Delays in morphological development in the thyroid gland: it is characterized by the fact that the cortex of the thymus occupies a very small area of the medulla, and mature lymphocytes are almost absent.

As the main morphological substrate of these changes, the size of the reticuloepithelial cells of the thymus cortical layer is small, the desmosomas are short and thick, and the sparse fibrous structures connecting the desmosomas. There is a lot of thick layer in the perivascular areas, causing the hematohistiogenic barrier to become functionally impaired.

Key words: thymus, morphology, involution, immunodeficiency, necrosis, apoptosis.

Muammoning dolzarbligi

Dunyoda yangi tugʻilgan chaqaloqlar yoki perinatal patologiyalarda xar 1000 ta tugʻruqni 1-4% ni tashkil etib, bachadon ichi infeksiyasi tufayli xomilani muddatiga yetmasdan oʻlik tugʻilishi tushuniladi. Rivojlangan davlatlardan AQSh va Yevropada ushbu koʻrsatkich 1000 ta tugʻruqqa oʻrtacha 4-5 tani tashkil etadi. Eng yuqori koʻrsatkich boʻyicha dunyo beshtaligida, Turkmaniston 45 ta, Tojikiston 33 ta, Azerbaijan 21 ta, Qirgʻiziston 17 ta va Oʻzbekistonda xar 1000 ta tugʻruqqa 16 ta holatni tashkil etadi¹. Bu esa, xomila ichi rivojlanishida ekstragenital kasalliklarni toʻliq skrining qilish yoki homiladorlik davrida qilinishi kerak boʻlgan tekshiruvlarni toʻliq amalga oshirilmaganligini koʻrsatadi². Perinatal patologiyalarda antenatal oʻlim asosan, infeksiyon va noinfeksiyon etiologiyali jarayonlar bilan birgalikda rivojlanib, xomilani yetilmaganligi, asfiksiyalar, tugʻruq travmalari, pnevmopatiyalar, miyada perinatal qon aylanishining buzilishi, yangi tugʻilgan chaqaloqlarning gemorragik kasalligi koʻrinishida namoyon boʻladi.

Tadqiqot maqsadi: chaqaloqlar antenatal oʻlimida timus toʻqimasidagi patomorfologik xos jihatlarini oʻrganishdan iborat.

Material va usullar

Antenatal davrda oʻlik tugʻilgan chaqaloqlar timus toʻqimasini morfologik usullaridan foydalanilgan.


Natija va tahlillar

28-33 haftalikda, timusni xomila ichi rivojlanishida, meyoriy gistiotpografik tuzilishining rivojlanishdan orqada qolishi, tashqi fibroz kapsulasining keskin qalinlashishi, trabekulyar oʻsimtalarni boʻlakchalar perimetridagi tekis traektoriyasini buzilishiga olib kelganligi aniqlandi. Bu guruhdagilarni timusini oʻrtacha ogʻirligi $4,75 \pm 2,16$ grni tashkil etganligi aniqlandi. Trabekulalarning devori qalinlashgan, tomirlarida toʻlaonlik, fibroblastlarning proliferatsiyasi, tarkibida kollagen tolalarning tartibsiz turli yoʻnalishda shakllanganligi, perimetrida makrofaglar va retikuloepitelial xujayralar bilan oʻzaro tutashgan soxalarini boʻlishi, limfotsitlarni subtrabekulyar soxalarda kam boʻlishi koʻrinishidagi morfologik oʻzgarishlar aniqlanadi. Poʻstloq va magʻiz qavatni ushbu davrda shakllanishini inobatga oladik boʻlsak, magʻiz qavat faqat timusni markaziy boʻlaklarida juda kam maydonni egallaganligi, poʻstloq qavatni keng maydonni egallaganligi, Gassal tanachalarini poʻstloq qavatda turli xil kattaliklarda shakllanganligi aniqlanadi.


Meʼyordagi ushbu muddat bilan taqqoslaganda, timus boʻlakchalari devorining tekis traektoriyali koʻrinishda boʻlishini inobatga olganda, aynan oʻrganilayotgan guruhda, boʻlakchalar devoridagi isyrak tolali birikituvchi toʻqimalarni keskin qalinlashganligi, dagʻal koʻrinishdagi septalarning shakllanishi, makrofaglarni perivaskulyar sohalarida koʻp miqdorda, sitoplazmasida 200x kattalikda 7-12ta apoptozga uchragan limfotsitlarni uchrashi, retikulo-epitelial xujayralarni uchburchak va yulduzsimon koʻrinishini uzunchoq tolasimon koʻrinishga kelganligi, oraliqda boʻshagan yalangʻoch sohalarini boʻlishi, limfotsitlarni keskin kamayganligini anglatadi.

¹ [United Nations Global SDG Database](#) 2022 йил.

² Morphology of fetal losses after antenatal hypoxia I.V. BARINOVA, CAND. MED. SCI. doi: 10.17116/rosakush201515214-18




1-Rasm. 33 haftalikda tug'ilgan antenatal nobud bo'lgan chaqaloq ayrisimon bezi. Bayonnoma 49D. Timus bo'lakchasi tarkibida chegra tanlamasdan takomil topayotgan xar xil kattalikdagi Gassal tanachalari (1), po'stloq qavatda trabekulyar to'siqning mag'iz qavatgacham o'sib kirishi va oraliqda shakllangan shishlar aniqlanadi. Mag'iz qavatda stromaning yalang'ochlashgan o'chovlari aniqlanadi. Barcha qavatlar qon tomirlarida to'laqonlik aniqlanadi. Bo'yoq G.E. O'lchami 10x10.




2-Rasm. 32 haftalikda tug'ilgan antenatal nobud bo'lgan chaqaloq ayrisimon bezi. Bayonnoma 40 D. Bez bo'lakchasi mag'iz qavatida mayda kalibrli vena qon tomiri anastomozining to'laqonligi va eritrotsitlarda sladj fenomeni aniqlanadi (1). Mayda kapillyarlarda xam yuzaga kelgan to'laqonlik timus parenximasida plazmatik bo'kish va stromal biriktiruvchi to'qimasida dezorganizatsiya o'choqlarini shakllanishiga olib kelganligi aniqlanadi. Takomil topayotgan ko'p sonli Gassal tanachalari aniqlanadi(2). Bo'yoq G.E. O'lchami 40x10.

Aksariyat bo'lakchalarda kollaps, makrofagalar atrofida limfotsitlarni ko'p uchrashi, fagotsitoz o'choqlarini ko'p bo'lishi, timik gormonlar ishlab chiqaruvchi xujayralarni keskin kamayishi aniqlandi. Bu o'zgarishlar vaqt mobaynida, jarayonda timusni aksidental transformatsiyaga uchrayotganligini turli bosqichlarda ekanligini ko'rsatadi. Po'stloq qavatdagi postkapiyayalr venulalarda keskin to'laqonlik, tarkibidagi eritrotsitlarni sladjlanishi, perivaskulyar soxalardagi shishlar, retikuloepitelial xujayralarni o'siqlari kalta yo'g'onlashagan ko'rinishda bo'lib, distrofik o'zgargan. Enaga xujayralarni o'choqli to'planishi, atrofida yalang'ochlangan soxalarni bo'lishi, mayda limfoblastlarni kam bo'lishi aniqlandi.



3-Rasm. 32 haftalikda tug'ilgan antenatal nobud bo'lgan chaqaloq ayrisimon bezi. Bayonnoma 21D. Ayrisimon bez po'stloq qavatida kichik limfotsitlarni indutsirlangan apoptozi kuchaygan va dekortikatsiyalanish jarayoni rivojlanganligi aniqlanadi (1), stromada yalang'ochlanish va tolali tuzilmalarni dezorganizatsiyasi yaqqol tasvirlangan. . Bo'yoq G.E. O'lchami 40x10.


Bu esa, timusni gematogen suyak ko'migidan migratsiyalanayotgan T limfotsitlarni keskin kam darajada kelayotganligini va po'stloq qavat postkapillyar venularida o'tgan limfoblastlarni enaga hujayralar atrofidagi to'plamlari atrofida makrofaglarni ko'payishi va indutsirlangan apoptoz jarayoniga tortilganligini anglatib, po'stloq qavat stromasini bo'shab qolganligi bu fikrimizni yaqqol tasdiqlashi bilan asoslanadi.




4-Rasm. 31 haftalikda tug'ilgan antenatal nobud bo'lgan chaqaloq ayrisimon bezi. Bayonnoma 13D. Timus bo'lakchasi mag'iz qavatida massiv Gassal tanachalarining shakllanishi va mayda kalibrli qon toimrlarning to'laqlonligi aniqlanadi (1). Makrofaglar va retikulo-epiteliyal xujayralarda distrofik va nekrobiotik o'zgarishlar aniqlanadi. Stromada takomil topgan interstitsial shishlar va stromal tolalarning dezorganizatsiyasi aniqlanadi. Bo'yoq G.E. O'lchami 10x10.

Ayrisimon bezlarning barcha intramural to'qimasiga xos bo'lgan xujayralarini morfologik jihatdan, shaklan o'zgarishi, asosan tolali tuzimlar xisobiga timus parenximasini tashkil etuvchi limfotsitlarni kamayishi, oraliqda plazmatik bo'kkan tolali tuzilmalar bo'ylab makrofaglarni bo'lishi, indutsirlangan apoptoz jarayonini kuchayganligi, morfofunktsional maydonlarni keskin kamayganligi bilan namoyon


bo'lganligini anglatadi. Dendritik xujayralarni kam sonli bo'lishi, gematogen kelgan T limfotsitlarni gistomoslik antigenlarini to'liq anglab olmasligi va apoptozga uchrash tezligi oshganligini anglatadi.




5-Rasm. 33 haftalikda tug'ilgan antenatal nobud bo'lgan chaqaloq ayrisimon bezi. Bayonnoma 14D. Mag'iz qavatida takomil topayotgan Gassal tanachalari (1), indutsirlangan apoptozga uchragan limfotsitlar o'rnida bo'shliqlar shakllangan. Mag'iz qavatda stromaning tolali tuzimlari bo'kkan va dezorganizatsiyaga uchragan. Barcha qavatlar qon tomirlarida to'laqonlik aniqlanadi. Bo'yoq G.E. O'lchami 10x10.



6-Rasm. 33 haftalikda tug'ilgan antenatal nobud bo'lgan chaqaloq ayrisimon bezi. Bayonnoma 17D. Po'stloq qavatida mayda limfotsitlarni o'zaro to'plangan to'q giperxrom bo'yalgan yadroli limfotsitlarni retikuloepitelial hujayralar atrofida to'planishi, morfofunktsional zo'riqishda turganligini anglatadi. Mag'iz qavatda stromaning yalang'ochlashgan o'choqlari aniqlanadi. Barcha qavatlar qon tomirlarida to'laqonlik aniqlanadi. Bo'yoq G.E. O'lchami 40x10.



7-Rasm. 33 haftalikda tug'ilgan antenatal nobud bo'lgan chaqaloq ayrisimon bezi. Bayonnoma 29D. Timus bo'lakchasi mag'iz qavatida o'zaro qo'shilib ketgan yirik o'lchamli gigant ko'rinishdagi Gassal tanachalarining o'zaro yaxlitlangan o'choqlari aniqlanadi (1), po'stloq qavatda trabekulyar to'siqning mag'iz qavatgacham o'sib kirishi va oraliqda shakllangan shishlar aniqlanadi. Mag'iz qavatda stromaning yalang'ochlashgan o'choqlari aniqlanadi. Barcha qavatlar qon tomirlarida to'laqonlik aniqlanadi. Bo'yoq G.E. O'lchami 40x10.



7-Rasm. 33 haftalikda tug‘ilgan antenatal nobud bo‘lgan chaqaloq ayrisimon bezi. Bayonnoma 11D. Timus bo‘lakchasi tarkibida chegra tanlamasdan takomil topayotgan xar xil kattalikdagi Gassal tanachalari (1), po‘stloq qavatda trabekulyar to‘siqning mag‘iz qavatgacha o‘sib kirishi va oraliqda shakllangan shishlar aniqlanadi. Mag‘iz qavatda stromaning yalang‘ochlashgan o‘chovlari aniqlanadi. Barcha qavatlar qon tomirlarida to‘laonlik aniqlanadi. Bo‘yoq G.E. O‘lchami 10x10.

Dinamikada timusning po'stloq qavati va mag'iz qavati nisbatlarining 7/1 ko'rsatkichda bo'lishi, septalar va xujayralar nisbati (limfotsitlar, retikulyar, epitelial xujayralar, makrofagalar) kamayishi, tarkibiy jixatdan asosan retikulyar xujayralarning o'zaro tutuashgan tarmoqlarini shakllanishi, differensiallanishga uchramagan kichik o'lchamdagi limfotsitlarni kondensirlangan fokuslarda to'planishi, atrofida bo'shliqlarni yuzaga kelishi, struktur funksional soxalar va enaga hujayralar atrofini bo'shab qolganligi aniqlanib, timusni involyusiyaga yuz tutayotganligini tasdiqlaydi. Uchburchak shaklida bo'lishi kerak bo'lgan retikuloepitelial xujayralar atrofida limfotsitlarni kam sonli bo'lishi, o'siqlarini yumaloq ovolsimon ko'rinishda bo'lishi, o'zaro anastamozlar oralig'ida bo'shagan stromani ko'rinishi, to'q fonda och sitoplazmali xujayralarni bo'lishi yulduzli osmon manzarasini eslatadi.

Retikuloepitelial hujayralar anastamozlari va septalar oralig'ida shishlarning shakllanishi, tolali tuzilmalarni plazmatik bo'kishi va dezorganizatsiyasi, perivaskulyar soxalarda gematogen migratsiyalanayotgan limfoblast xujayralarni shu soxalarda indutsirlangan apoptozga uchrashi, bujmaygan yadrolarni ko'p bo'lishi bilan xarakteralandi. Eng qiziqarli jihatlaridan biri, 28-33 haftalik davrida, timusning kortiko medullyar soxasidagi differensiallanish sohalari aniqlanmadi.

Po'stloq soxasidagi Gassal tanachalari tarkibidagi epitelial xujayralarning shoxli distrofik o'zgarishlarga uchragan ko'p sonli o'choqlari aniqlandi. Gassal tanachalari atrofida retikulyar hujayralarni anastamozlangan o'choqlari va xuddi terilgan marvarid ko'rinishdagi o'zgarishlarning bo'lishi, ta'sirlovchi omillar timusni xomila ichi ontogenezi to'liq rivojlanmasdan, muddatdan oldin invalyutiv o'zgarishlar sodir bo'lganligini anglatadi.

Xulosa

Po'stloq va mag'iz qavatdagi kapilyarlarning to'laqlonligi va erirotsitlarni sladj fenomenini bo'lishi, qon aylanishi buzilganligini anglatib, mayda kalibrli vena qon tomirlari anastamozlangan tarmoqlarini keskin kengayishiga olib kelganligi bilan namoyon bo'lganligi aniqlandi. Bu jarayon xam o'z navbatida, timusni parenximasida interstitsial shishlar, kichik limfotsitlarni indutsirlangan apoptoz jarayoni kuchayganligini, retikulotsitlarni retikulyozi, anastamozli o'choqlarni ko'p miqdorda shakllanishi bilan davom etganligi aniqlandi. Mag'iz qavatda esa, faqat timusni markaziy bo'lakchalaridagina aniqlanib, kichik maydonni egallaganligi, juda ko'p sonli mayda 400x kattalikda 15-25 tagacham Gassal tanachalari uchraganligi aniqlandi. Gassal tanachalarining minimal kattaligi $35,12 \pm 2,31$ mkm, o'rtacha kattaligi $74,22 \pm 5,16$ mkmni, maksimal kattalash-ganligi $251,21 \pm 11,2$ mkmni tashkil etganligi aniqlandi. Mag'iz va po'stloq qavatdagi Gassal tanachalarining chegara tanlamasdan istalgan sohalarda joylashganligi, dentritik xujayralarni kam sonli o'choqli to'plamining bo'lishi va atrofida limfotsitlarning bo'lmasligi timusda involyusiyaning qaytmas jarayon ko'rinishida shakllanayotganligini tasdiqlaydi. Gassal tanachalari tarkibida xali to'liq nekrozga uchramagan epitelial hujayralar va tolasimon tuzilmalar aniqlanib, ba'zilarida petrifikatsiya uchraganlari xam aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Билошапка В.А. и др. Современные аспекты патоморфологии врожденной цитомегаловирусной инфекции у детей первого года жизни (случай из практики) //Медико-социальные проблемы семьи. 2021;26(2):99-104.
2. Бородин Ю.И. Периферические лимфоидные структуры: образование и функция / Ю.И. Бородин, О.В. Горчакова, В.Н. Горчаков //Морфология. 2016;150(4):90-96.
3. Бочарова О.А., Карпова Р.В., Бочаров Е.В., Вершинская А.А., др. $\beta 2$ -интегрины LFA-1, MAC-1 - мишень для усиления иммунитета против опухоли. //Российский биотерапевтический журнал. 2020;19(1):53-8.
4. Босин В.Ю., Вербицкая А.И., Соломин Ю.А. Сравнительная оценка данных ультразвукового и секционного исследования вилочковой железы у детей //Ультразвуковая диагностика в акушерстве, гинекологии и педиатрии. 2020;3:40-47.
5. Бубнова Н. В. и др. Изменение клеточного состава тимуса крыс через 90 дней после введения уретана на фоне приема селена //Журнал анатомии и гистопатологии. 2024;13(1):19-27.
6. Вербицкая А.И., Солохин Ю.А., Назарова Н.Ф. Особенности эхографии вилочковой железы у детей в различные возрастные периоды //Ультразвуковая и функциональная диагностика. 2001;3:34-39.

7. Волков В.Г., Кастор М.В. Современные взгляды на проблему классификации и определения причин мертворождения //Российский вестник акушера-гинеколога. 2020;20(3):29-33.
8. Галеева Э.Н. Характерные особенности становлений топографии ряда органов иммунной системы человека в раннем плодном периоде онтогенеза //Вестник новых медицинских технологий, 2011;18(2):489-492.
9. Галеева Э.Н. Морфологическая характеристика функциональных зон тимуса человека в промежуточном плодном периоде онтогенеза //Оренбургский медицинский вестник. 2015;3/2(10):15-19.
10. Григорьев В.Н. Структурно-функциональные взаимосвязи иммунной и эндокринной систем у детей раннего возраста //Математическая морфология: электронный математический и медико-биологический журнал. 2007;6(1):40-50.
11. Григорьева Е.А. Морфология тимуса человека в раннем постнатальном периоде онтогенеза / Е. А. Григорьева, С. В. Григорьев, Э. Р. Скаковский //International academy journal Web of Scholar. May 2018;5(23):2:11-15.
12. Донецкова А.Д., Никонова М.Ф., Ваганов П.Д., Митин А.Н. Особенности Т-лимфопоэза у детей с тимомегалией //Молекулярная диагностика 2017: сб. трудов IX Всерос. науч.-практ. конф. с междунар. участием. М., 2017; 512-513 с.
13. Драндрова Е.Г. и др. Иммуногистохимические исследования клеточного состава тимуса при канцерогенезе в условиях врожденного иммунодефицита //Современные проблемы науки и образования. 2015;3:193-193.
14. Ерофеева Л.М. Морфология тимуса при моделировании экстремальных воздействий: гипергравитации ионизирующих излучений: автореф. дис. ... д-ра биол. Наук (03.00.25) /Л.М.Ерофеева. - М., 2002; 312 с.
15. Заболотских Т.В., Григоренко А.А., Гориков И.Н. Изменение ультразвукового и морфологического строения вилочковой железы у новорожденных с внутриутробным парагриппом 1 и 3 типов //Бюллетень физиологии и патологии дыхания. 2013;50:94-98.

Qabul qilingan sana 20.10.2024